



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 20-fevral

VII-6-28-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashi tomonidan qonunlarni ko'rib chiqish va muhokama qilish to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2024-yil 11-dekabrdagi "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari tomonidan qonunlarni ko'rib chiqish va muhokama qilish to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi KQ-19-V-sonli Qarori hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, 6-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2024-yil 11-dekabrdagi "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari tomonidan qonunlarni ko'rib chiqish va muhokama qilish to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi KQ-19-V-sonli Qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashi tomonidan qonunlarni ko'rib chiqish va muhokama qilish to'g'risidagi Nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Mazkur kengash qarori ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining doimiy komissiyalari raislari zimmasiga yuklatilsin.
4. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani
Kengashining
2025-yil 20-fevraldagi
VII-6-28-7-96-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashi tomonidan qonunlarni
ko'rib chiqish va muhokama qilish to'g'risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu nizom (bundan buyon matnda Nizom deb yuritiladi) Senatda dastlabki tarzda ko'rib chiqilayotgan qonunni (bundan buyon matnda qonun deb yuritiladi) xalq deputatlari tuman Kengashi (bundan buyon matnda tuman Kengashi deb yuritiladi) tomonidan ko'rib chiqish, muhokama qilish, shuningdek qonun yuzasidan takliflar ishlab chiqishga doir masalalarni tartibga soladi.

2. Nizom O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunga, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida"gi, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunlarga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamentiga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2-bob. Qonunlarni Xalq deputatlari tuman Kengashiga yuborish

3. Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinganidan keyin o'n kundan kechiktirmay Senatga yuboriladi va Senatga kiritilganidan boshlab oltmish kun ichida ko'rib chiqiladi.

4. Senatga kelib tushgandan so'ng Senat Raisi qonunni dastlabki tarzda ko'rib chiquvchi Senatning mas'ul qo'mitasini (yoki qo'mitalarini) belgilaydi.

5. Qonunni mas'ul qo'mita tomonidan dastlabki tarzda ko'rib chiqish muddati qonun qo'mitaga kelib tushgan sanadan boshlab o'n besh kundan oshmasligi kerak.

6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida qonunlarni ko'rib chiqish tartibi Senat Kengashi qarori bilan tartibga solinadi.

7. Qonunni dastlabki tarzda ko'rib chiqish uchun mas'ul etib belgilangan qo'mita kotibiyati qonun Qo'mitaga kelib tushishi bilan umumdavlat va hududiy manfaatlar mutanosibligini ta'minlash maqsadida qonunning o'rganilishini tashkil qilish, shuningdek hududiy manfaatlarni hisobga olish va ular bo'yicha takliflarni to'plash uchun qonunni xalq deputatlari tuman Kengashiga yuboradi.

8. Qonunni Tuman Kengashiga yuborish yuzasidan tayyorlangan xatlar mas'ul qo'mita raisi yoki uning o'rinbosari (o'rinbosar doimiy asosda faoliyat yuritmagan hollarda mazkur qo'mitada doimiy asosda ishlovchi senator) tomonidan imzolanadi.

9. Qonun tuman Kengashining kotibiyati tomonidan ro'yxatga olinadi va shu kundan boshlab tuman Kengashiga kiritilgan hisoblanadi.

10. Qonun bilan birga tuman Kengashiga quyidagi hujjatlar yuborilishi mumkin:

Qonunchilik palatasining qonun qabul qilinganligi to'g'risidagi qarori;

qonun kontseptsiyasi bayon etilgan qonunga doir tushuntirish xati;

qonun qabul qilinishi munosabati bilan qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi, shuningdek qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risidagi qonun;

o'zgartirilishi, qo'shimcha kiritilishi, o'z kuchini yo'qotgan deb topilishi yoki qabul qilinishi lozim bo'lgan qonun osti hujjatlarining ro'yxati;

moddiy xarajatlar talab etuvchi qonunlar uchun - moliyaviy-iqtisodiy asos;

davlat daromadlarining qisqartirilishini yoki davlat xarajatlarning ko'paytirilishini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining moddolari bo'yicha o'zgartishlarni nazarda tutuvchi qonunlar yuzasidan Vazirlar Mahkamasining xulosasi;

xalqaro hujjatlar va xorijiy mamlakatlar qonun hujjatlari printsiplari, qoidalari va tariflarining tayyorlangan aniq tahlili keltirilgan qiyosiy jadval;

qonunchilik tashabbusi huquqi subyekti tomonidan qonun loyihasi bilan birga Qonunchilik palatasiga taqdim etilgan materiallar.

11. Qonun, qoida tariqasida, elektron tarzda tuman Kengashining elektron pochta manziliga yuboriladi. Qonun va unga ilova qilingan materiallar qog'oz nusxada ham yuborilishi mumkin.

3-bob. Qonunlarni doimiy komissiyaga taqdim etish

12. Kelib tushgan qonun va unga ilova qilingan materiallar tuman Kengashi kotibiyati mudiri tomonidan shu kunning o'zida tuman Kengashi raisiga taqdim etiladi.

13. Tuman Kengashi raisi qonunni ko'rib chiquvchi doimiy komissiyani (yoki doimiy komissiyalarni) belgilash bo'yicha rezolyutsiya loyihasini imzolaydi.

14. Tuman Kengashi raisining rezolyutsiyasiga ko'ra qonunni qabul qilib olgan doimiy komissiya o'z vazifalaridan kelib chiqqan holda rezolyutsiyada hamda ushbu Nizomda belgilangan muddatlarda tegishli vazifa va funksiyalarni amalga oshiradi.

4-bob. Tuman Kengashi doimiy komissiyasining qonunni ko'rib chiqishdagi asosiy vazifa va funksiyalari

15. Tuman Kengash doimiy komissiyasi tomonidan qonunni ko'rib chiqish bosqichlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

qonunni ko'rib chiqish;

kelib tushgan barcha taklif va fikr-mulohazalarni, shu jumladan qonunning to'liq muhokamasini tashkil qilish uchun doimiy komissiya majlislarini o'tkazish;

qonun yuzasidan doimiy komissiya tavsiyaviy xulosasini shakllantirish;

qonunni ko'rib chiqish natijasida shakllantirilgan umumiy axborotni Senatga yuborish.

16. Tuman Kengashi doimiy komissiyasi tomonidan qonunni ko'rib chiqish muddati qonun kelib tushgan sanadan boshlab olti kundan oshmasligi kerak.

17. Qonunni ko'rib chiqish davomida tuman Kengashi doimiy komissiyasi quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

qonun kelib tushgandan so'ng ikki kun ichida qonunni ko'rib chiqish uchun deputatlar, davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ilmiy muassasalar va fuqarolik jamiyati institutlari vakillari, xo'jalik yurituvchi subyektlar, ommaviy axborot vositalari vakillari, shuningdek mutaxassislar, ekspertlar va olimlarni jalb etadi;

zaruratga ko'ra davlat organlari va boshqa tashkilotlardan, mansabdor shaxslardan qonunni ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni, ekspert xulosalari va boshqa xulosalarni, statistika ma'lumotlari va boshqa ma'lumotlarni talab qilib oladi;

qonun kelib tushgandan so'ng uch kun ichida uni hudud manfaatlarini inobatga olgan holda har tomonlama, chuqur qiyosiy tahlil qilish orqali o'rganadi;

qonun kelib tushgandan so'ng besh kun ichida qonun yuzasidan tavsiyaviy xulosa beradi;

qonun kelib tushgandan so'ng olti kun ichida tuman Kengashi kotibiyati bilan birgalikda qonunni ko'rib chiqish natijasi yuzasidan umumiy axborotni shakllantiradi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

18. Tuman Kengashi doimiy komissiyasi raisi qonun kelib tushgandan so'ng:

tuman Kengashi kotibiyati orqali bir kun ichida deputatlarga qonunni, uning ilovalarini, qonunni ko'rib chiqish bilan bog'liq materiallar va boshqa hujjatlarning yuborilishini tashkil qiladi;

besh kun ichida qonunni ko'rib chiqish bilan bog'liq zarur materiallar tayyorlanishini tashkil qiladi, doimiy komissiya majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi;

qonun yuzasidan axborot, taklif va tavsiyalarni umumlashtirilishini tashkil qiladi;

qonunni ko'rib chiqish bilan bog'liq tegishli hujjatlar (xulosa, umumiy axborot, ekspert (ishchi) guruhlar yig'ilishlarining bayonnomalari va boshqalar) rasmiylashtirilishini tashkil qiladi;

tuman Kengashi raisiga qonunni ko'rib chiqish bilan bog'liq topshiriqlarning bajarilishi haqida axborot beradi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

19. Qonunni ko'rib chiqish jarayonida doimiy komissiyasi qonunning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlarga, xalqaro printsiplar hamda normalarga, hudud manfaatlariga muvofiqligini aniqlaydi va bu doimiy komissiya tavsiyaviy xulosasining tarkibiy qismi hisoblanadi.

20. Doimiy komissiya tavsiyaviy xulosasining loyihasida, qoida tariqasida, quyidagilar ko'rsatiladi:

qonun tuman Kengashiga kelib tushgan sana;

qonunning maqsadi va asosiy vazifalari;

qonunni qabul qilish zaruriyati, sabablar va sharoitlar; qonunning tuzilishi (modda, bob, bo'limlar soni va ularning asosiy mazmuni);

qonunning ilgari amal qilgan yoki hozirgi kunda amal qilib turgan, shu sohadagi munosabatlarni tartibga soladigan qonun hujjatlaridan farqi (yangi normalar va qoidalar kiritilganligi).

21. Doimiy komissiyaning tavsiyaviy xulosasi natijasida umumiy axborot loyihasi shakllantiriladi. Umumiy axborotda qonun yuzasidan qilingan barcha ishlar yoritiladi.

22. Umumiy axborotda qonunni ma'qullash yoki rad etish haqidagi tavsiya orqali qonunga baho berilgan bo'lishi kerak. Qonunni rad etish zarurligi haqidagi xulosaga kelganda qonunni rad etish zarur deb hisoblashning asoslari bayon etilgan bo'lishi lozim.

23. Doimiy komissiyaning tavsiyaviy xulosasi aks etgan umumiy axborot loyihasi tavsiyaviy xulosa kabi doimiy komissiya majlisida muhokama etiladi va doimiy komissiya raisi tomonidan imzolanadi.

24. Oliy Majlis Senatiga yuboriladigan javob xati loyihasi va umumiy axborot tuman Kengashi raisiga taqdim etiladi.

25. Oliy Majlis Senatiga yuboriladigan javob xatiga tuman Kengashi doimiy komissiyasi tomonidan tasdiqlangan umumiy axborot ilova qilinadi.

26. Tuman Kengashi raisi tomonidan imzolangan javob xatini yuborish tuman Kengashi kotibiyati tomonidan amalga oshiriladi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

27. Tuman Kengashi qonunni ko'rib chiqish bilan bog'liq jarayonlarni ommaviy axborot vositalari orqali, shuningdek, o'zining rasmiy veb-saytida yoritib borishi mumkin.

28. Ushbu Nizomga o'zgartirishlar hamda qo'shimchalar kiritish yoki uni o'z kuchini yo'qotgan deb topish Senat Kengashi qarori bilan tasdiqlanadi.